



HARAKATGA OID MURAKKAB MASALALARINI O'RGATISH METODIKASI

Qarshiyeva Muborak Arslonbek qizi

Samarqand Davlat Universiteti talabasi

E-mail: Qarshiyevamuborak43@gmail.com

Tel: +99899 6839732

Annotatsiya: Ushbu maqolada harakatga oid murakkab masalalarining yechilishining qulay usullari ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'z: Masofa ,tezlik, vaqt, qarama-qarshi harakat, bir tomonlama harakat.

Abstract: In this article, convenient methods of solving complex motion problems are shown.

Key word: Distance, speed, time, opposite movement, unilateral movement.

Annotatsiya: Ushbu maqolada har qanday harakatga oid masalada jami bosib o'tgan yo'lini topishimiz uchun jami sarflangan vaqtini tezliklar yig'indisiga ko'paytirishimiz kerak ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'z: Masofa , tezlik, vaqt.

Boshlang'ich sinflarning quyi bosqichida harakatga oid masalalarining eng sodda turlari beriladi. Ya'ni to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanayotgan jismning tezligi va sarflagan vaqtib berilib uning bosib o'tgan masofasini topish kabi. Yoki , aksincha tezlik yoki vaqtini topish. Boshlang'ich sinflarning yuqori bosqichiga kelib harakatga oid masalalar murakkablashadi.

1 -Masala

Vertalyot 4 soat 200km/soat tezlik bilan, 2 soat 230km/soat tezlik bilan uchdi. Shu vaqt ichida Vertalyot qancha masofani bosib o'tgan .

1)Masala qanday tipdagи masala?

-murakkab

2)Masala nima haqida?

-vertalyotning harakati va bosib o'tgan yo'li haqida

3) Masalada nima ma'lum?

-vertalyotning sarflagan vaqtib tezligi ma'lum

4) Masalada nima noma'lum?

-vertalyotning bosib o'tgan masofasi

5) Masalada nimani topish kerak?

-vertalyotning bosib o'tgan masofasini

Qisqa sharti:

4soat-200km/soat tezlik bilan





]-?

2soat-230km/soat tezlik bilan

Jami bosib o'tgan masofasi-?km

1.Dastabki vaqt davomida qancha masofani bosib o'tganini topish uchun dastlabki tezligini sarflagan vaqtiga ko'paytiramiz.

2. Keyingi vaqt davomida qancha masofani bosib o'tganini topish uchun keyingi tezligini sarflagan vaqtiga ko'paytiramiz.

3.Jami bosib o'tgan masofasini topish uchun dastlabki masofasiga keyingi masofasini qo'shamiz.

Yechish :

1-ish : $4 \times 200 = 800$ (km)

2-ish: $2 \times 230 = 460$ (km)

3-ish: $800 + 460 = 1260$ (km)

Javob:jami bosib o'tgan masofasi 1260km

2-MASALA

Oralaridagi masofa 96 km bo'lgan ikki qirg'oqdan bir- biriga qarab ikkita kema yo'lga chiqdi. Birinchi kema 26 km/soat tezlik bilan, ikkinchi kema 22 km/soat tezlik bilan harakatlandi. Ikkita kema qancha vaqtdan keyin uchrashadi.

1) Masala qanday tipdag'i masala?

- murakkab tipdag'i

2) Masala nima haqida?

-ikkita kema harakati haqida

3) Masalada nima ma'lum?

- qirg'oqlar orasidagi masofa, kemalarning har birining tezligi ma'lum

4) Masalada nima noma'lum?

- sarflangan vaqt noma'lum

5) Masalada nimani topish kerak?

-sarflangan vaqtini

Qisqa sharti:

Orasidagi masofa-96km

1-kema tezligi-26km/soat

2-kema tezligi -22km/soat

Sarflangan vaqt -?soat

1. Kemalar bir -biriga qarab harakatlangani uchun tezliklar yig'indisini topamiz . Tezliklar yig'indisini topish uchun 1-kema tezligiga 2-kema tezligini qo'shamiz .

2. Sarflangan vaqtini topish uchun qirg'oqlar orasidagi masofani tezliklar yig'indisiga bo'lamiciz.



Yechish:

$$1) 26+22=48 \text{ (km/soat)}$$

$$2) 96:48= 2 \text{ (soat)}$$

Javob: 2 soat vaqt sarflangan

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Jumayev M.E , Tadjiyeva Z «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi» Toshkent:Fan va texnologiya, 2005, 312 bet
2. X.Nazarov, G.Eshqobilova . Matematika o'qitish metodikasi.SamDu .2022y.
3. Matematika umumiyy o'rta ta'lif maktablari 3-sinflari uchun darslik.